







Bugun kunning ikkinchi yarmida “Renessans” kino uyida Kinematografiya agentligi va uning tarkibidagi tizim tashkilotlari xodimlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining mas’ul xodimi M.Rasulov tomonidan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonun ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalar va xorij tajribasi” mavzusida o‘quv seminari tashkil etildi.

Tadbir davomida agentlik mas’ul xodimlari tomonidan berilgan savollarga mutaxassis ekspertlardan tegishli javoblar olindi. Shuningdek, kinomahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida qonun ijrosini ta’minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar asosida ish yuritilishiga kelishib olindi.

O‘quv seminari davom etmoqda.

Kinematografiya agentligi Axborot xizmati